



QALBNING IKKI GAVHARI: MUHAMMAD YUSUF IJODIDA VATAN VA MUHABBAT

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17600179>

ДВА СЕРДЕЧНЫХ СКАРБА: ОТЕЧЕСТВО И ЛЮБОВЬ В ТВОРЧЕСТВЕ МУХАММАДА ЮСУФА

TWO GEMS OF THE HEART: HOMELAND AND LOVE IN MUHAMMAD YUSUF'S WORKS

Nigina Qodirova Kamoljon qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti : o'zbek tili yo'nalishi , 4 - kurs

ANNOTATSIYA *Ushbu maqola Muhammad Yusuf ijodida Vatan va muhabbat mavzularining o'zaro bog'liqligini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot jarayonida she'rlardan Vatan va muhabbatga oid misollar tanlab olinib, ularning badiiy vositalar orqali ifodalanish xususiyati o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Vatan va muhabbat obrazlari she'riyatda inson qalbi va ma'naviy qadriyatlarni uyg'unlashtiruvchi asosiy elementlar hisoblanadi. Tadqiqot xulosasiga ko'ra, Muhammad Yusuf ijodida qalbning ikki "gavhari" - Vatan va muhabbat - o'quvchida milliy, ijtimoiy va insoniy qadriyatlarni chuqur anglashga yordam beradi hamda hissiy-estetik tarbiya berish imkoniyatini oshiradi.*

KALIT SO'ZLAR: *Muhammad Yusuf, Vatan, muhabbat, she'riyat, qalb, qadriyat, obraz, metafora, milliy g'urur, hissiyot, ma'naviyat, estetik tarbiya*

АННОТАЦИЯ *Данная статья посвящена глубокому анализу взаимосвязи тем Родины и любви в творчестве Мухаммада Юсуфа. В исследовании использовались методы текстового, тематического и стилистического анализа. В процессе работы были отобраны примеры из стихотворений, отражающие темы Родины и любви, и изучены особенности их художественного выражения. Результаты показывают, что образы Родины и любви являются ключевыми элементами, объединяющими человеческое сердце и духовные ценности в поэзии. В заключение отмечается, что два «драгоценных камня сердца» - Родина и любовь помогают читателю глубже осознать национальные, социальные и человеческие ценности, а также усиливают эмоционально-эстетическое воспитание.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Мухаммад Юсуф, Родина, любовь, поэзия, сердце, ценности, образ, метафора, национальная гордость, эмоции, духовность, эстетическое воспитание*



ABSTRACT *This article is devoted to a deep analysis of the interrelation of the themes of Homeland and Love in Muhammad Yusuf's poetry. The study employed textual, thematic, and stylistic analysis methods. Examples from poems illustrating the themes of Homeland and Love were selected and examined to understand their artistic expression. The results indicate that the images of Homeland and Love are key elements that unify the human heart and spiritual values in poetry. In conclusion, the "two gems of the heart" - Homeland and Love - help readers gain a deeper understanding of national, social, and human values, while also enhancing emotional and aesthetic education.*

KEYWORDS: *Muhammad Yusuf, Homeland, Love, poetry, heart, values, imagery, metaphor, national pride, emotions, spirituality, aesthetic education*

KIRISH

Adabiyot insoniyat tafakkurining eng nozik shakllaridan biri bo'lib, u jamiyatning ma'naviy dunyosini, ruhiy kechinmalarini va estetik qarashlarini ifoda etadi. Har qanday millat adabiyoti o'z xalqining ichki olamidani, tarixiy xotirasidan va dunyoni idrok etish madaniyatidan oziqlanadi. Shu jihatdan adabiyot xalqning o'zini tanish, o'zini anglash jarayonidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek adabiyoti taraqqiyotida xalqona ruh, samimiy ifoda va so'zning tabiiyligi doimo yetakchi o'rin tutgan. Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari ijodkorlar ana shu tamoyilni badiiy tafakkurning asosiy yo'nalishiga aylantirganlar. Mazkur an'ana zamonaviy davrda o'zining yangi ifodasini Muhammad Yusuf ijodida topdi.

Shoir she'riyati orqali o'zbek adabiyotidagi xalqona ohang, so'zning halolligi va tuyg'uning pokligi yana bir bor yangicha mazmunda jarangladi. U ijodida milliy ruhni badiiy samimiyat bilan uyg'unlashtirib, o'zbek she'riyatini ruhiy jihatdan yangilagan shoir sifatida

e'tirof etiladi. Muhammad Yusuf - o'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi bo'lib, uning she'riyatida inson qalbi, Vatan va sevgi mavzulari ustuvor o'rin tutadi. She'riyatidagi Vatan tuyg'usi milliy g'urur, fidoyilik, vatanparvarlik va milliy ongni aks ettiradi. U o'quvchida yurtga muhabbat va sadoqat ruhini uyg'otadi, milliy qadriyatlarni chuqur his qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, muhabbat mavzusi uning ijodida insoniy his-tuyg'ular, mehr-shafqat, sadoqat, insonparvarlik va ma'naviy uyg'unlikni ifodalaydi. Muhammad Yusuf she'riyatida Vatan va muhabbat o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, bu mavzular orqali inson qalbinin eng nozik hissiy va ma'naviy qatlamlari yoritiladi.

Shuningdek, maqolada Vatan va muhabbat obrazlarining badiiy vositalar, metafora va ramzlar orqali ifodalanish xususiyati ham batafsil tahlil qilinadi, bu esa Muhammad Yusuf she'riyatining ma'naviy-estetik qirralarini ochib beradi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, u o'quvchilar va adabiyot ixlosmandlariga she'riyat orqali milliy va



insoniy qadriyatlarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Muhammad Yusuf ijodi va uning she'riyatidagi Vatan hamda muhabbat mavzulari ko'plab adabiyotshunos olimlar tomonidan chuqur va tizimli tadqiq qilingan. Masalan, A. Qodirov Muhammad Yusuf she'riyatida milliy g'urur va Vatan tuyg'usining ustunligini, xalqning milliy qadriyatlarini ifodalashdagi rolini tahlil qilgan hamda uning she'rlari orqali o'quvchida vatanparvarlik ruhini uyg'otish xususiyatini yoritgan[6]. B. Yoqubov esa Muhammad Yusuf ijodida muhabbat mavzusining falsafiy, ma'naviy va hissiy mohiyatini o'rganib, she'riy obrazlar orqali inson ruhiyatining nozik qatlamlarini ochib bergan[8]. Shu bilan birga, N. Tadjiboev o'zbek adabiy nazariyasi nuqtai nazaridan Muhammad Yusuf ijodini semantik va stilistik jihatdan tahlil qilgan, uning she'riyatidagi ramzlar, metaforalar va badiiy vositalarning o'quvchiga ta'sirini batafsil ko'rsatgan[7]. Ushbu tadqiqotlar she'riyatdagi mavzular va obrazlarning nafaqat estetik, balki ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi.

TADQIQOT

METODOLOGIYASI

O'zbek adabiyotining xalqona ohangda so'zlagan eng samimiy shoirlaridan biri - Muhammad Yusufdir. U qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, yurakdan chiqqan she'rlari bilan millionlab kitobxonlar qalbida o'chmas iz qoldirdi. Uning asarlari xalqning dardi, orzusi,

quvonchi va muhabbatini o'zida mujassam etgani sababli hanuz sevib o'qiladi. Shoir o'z ijod yo'lini shunday izohlaydi:

“Men she'rni faqat ko'chadan izlab, ko'chadan topaman. Kitob o'qib she'r yozmayman. Kitobdan nasr topish mumkindir, ammo haqiqiy she'r - odamlar orasida. Uni ko'ngil ko'zi bilan qog'ozga tushira bilish lozimdir.” Bu so'zlarda Muhammad Yusufning butun ijod falsafasi mujassam. U xalq orasida yashadi, xalq tilida so'zladi va aynan shu samimiylik uni el suygan shoirga aylantirdi. Muhammad Yusufning qaysi she'rini o'qimaylik, unda Vatan nafasi, yurt mehrining tafti sezilib turadi. U shoirlikni mansab yoki shon-shuhrat deb emas, balki Vatanga xizmat, xalq oldidagi burch deb bilgan. Shu bois u shunday deydi:

“She'r - bu shirin dard, azob. Shoir - shu dard bemori.”

Shoir Vatanini onadek sevgan. U uchun Vatan - eng ulug', eng go'zal tuyg'u edi. U bu sevgini baland so'zlar bilan emas, yurakdan chiqqan samimiy satrlar bilan ifodalagan:

O, ota makonim, onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to'shay
soyanga.

Sendek mehribon yo'q, sendek
ko'rkli,

Rimni alishmasman bedapoyangga.

Bu misralarda yurtga mehr, sadoqat, faxr va samimiyat mujassam. Shoir Vatanini onasiga qiyoslab, uni eng beg'ubor muhabbat bilan madh etadi.



Muhammad Yusuf she'riyatida muhabbat mavzusi ham alohida o'rin tutadi. U muhabbatni inson qalbining bezagi, lekin ayni paytda shirin iztirob deb biladi. Quyidagi misralar bunga yaqqol misoldir:

Muhabbat, ey go'zal iztirob,

Ey ko'hna dard, ey ko'hna tuyg'u...

Shoir bu yerda muhabbatni "go'zal iztirob" deb ataydi. Bu ibora orqali u muhabbatning azobli, ammo baribir hayotga mazmun beradigan tuyg'u ekanini ko'rsatadi. "Ko'hna dard" esa bu tuyg'uning abadiyligidan darak beradi - muhabbat qadimdan mavjud, u har bir yurakda yangidan tug'ilaveradi.

Muhammad Yusuf uchun muhabbat - insonni poklaydigan, qalbni yoritadigan tuyg'u. U bu insoniy jilvani hamisha halollik, sadoqat va samimiyat bilan bog'laydi.

So'z yurakka yetmasa - she'r emas.

Shoir ijodida she'r yozishning mashaqqati va shoirlik mas'uliyati haqida ham chuqur fikrlar bor. Uning quyidagi to'rtligi bunga misol:

Lochin ko'kda netar ko'zi o'tmasa,

Sindir qalamingni so'zi o'tmasa.

Vatan desang o'pkang to'lib ketmasa,

She'r yozishga balo bormi, birodar.

Bu to'rtlik - Muhammad Yusufning she'riyat, ijodkorlik va Vatanga muhabbat borasidagi hayqirig'i, ayni paytda o'ziga va butun shoirlarga qaratilgan daxldorlik chaqiruvidir.

1. "Lochin ko'kda netar ko'zi o'tmasa"

Lochin - kuch, ko'tarinkilik, erkinlik timsoli. Ko'kka parvoz qilgan lochin, agar uning ko'zida o'tkirlik, nigohida ma'no bo'lmasa, u oddiy qushdan farq qilmaydi. Bu yerda lochin - shoir, shoirning ilhomi. Agar uning nazari teran bo'lmasa, so'zlari ham samarasiz.

2. "Sindir qalamingni so'zi o'tmasa"

Bu misra - qat'iy da'vat. Shoir aytmoqda: agar yozgan so'zing yurakka yetmasa, qalbni silkitmasa - unda yozmaslik afzal. Bu so'zning mas'uliyati haqida. So'z o'tkir bo'lishi kerak, u yurakni teshib o'tmog'i kerak.

3. "Vatan desang o'pkang to'lib ketmasa"

Shoir uchun Vatan oddiy mavzu emas - bu ruhiy og'riq, vijdon og'irligi. Agar "Vatan" deganingda ko'zlaring to'lib, yuraging siqilmasa, demak, sen hali uni his qilgan emassan. Bu - vatanparvarlikni shunchaki fikr bilan emas, ruh bilan yashash zarurligini eslatadi.

4. "She'r yozishga balo bormi, birodar"

Bu so'nggi satrda keskinlik, og'riqli haqiqat bor. Agar so'z yurakdan chiqmasa, xalq dardini aytolmasa - she'r yozishning nima keragi bor? Shoir bu yerda «yozma», deyayotgani yo'q. U aslida: "she'r yozishni halollik, sadoqat va vijdon bilan bajargin" deyapti. Bu to'rtlik - Muhammad Yusuf uchun she'riyatning falsafasi. Unda:Lochin - ijodkorning nigohi,

Qalam - uning quroli,



Vatan - eng og'riqli mavzusi,
She'r - faqat yurakdan chiqsa she'r
bo'lishi mumkinligi haqida.

Shoir bu yerda nafaqat o'zini, balki
bizni ham savolga tutadi: yuragingda dard
bormi? Nigohingda teranlik bormi?
So'zing yurakka yetyaptimi? Agar yo'q
bo'lsa - "She'r yozishga balo bormi,
birodar?"..

Poklik - Vatan muhabbatining asosi.

Muhammad Yusuf she'rlarida
Vatan sevgisi har doim poklik va
samimiyat bilan bog'liq. U Vatanni
sevishni baland so'zlar bilan emas, balki
hayotdagi oddiy, ammo chuqur ma'noli
holatlar orqali ko'rsatadi:

Men keldim shul shaffof
so'zimni topib,

Men bildim, yurakdan Vatanni
sevmoq -

Belanchak osilgan tollarni o'pib,

Chaqaloq ko'ziga halol termulmoq...

Bu misralarda shoir Vatanga
mehri eng toza, eng beg'ubor
manzaralar orqali tasvirlaydi: tabiat, bola,
halollik... Uning nazarida Vatan sevgisi -
bolakayning ko'zidek halol, tabiatdek
sofligicha bo'lishi kerak. Bu sevgi so'z
bilan emas, yurak bilan his etiladi.

NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki,
Muhammad Yusuf o'zbek adabiyotining
xalqona yo'nalishiga yangi estetik ma'no
berdi. U xalq so'zini, xalq ruhini nafaqat
saqlab qoldi, balki uni badiiy-falsafiy
darajada boyitdi. Shoir so'zga mas'uliyat
bilan yondashish, she'rni vijdon va yurak
bilan o'lchash tamoyilini adabiyotimizda
mustahkamladi.

Uning ijodi orqali o'zbek she'riyati
nafaqat milliy ohangini, balki ichki
tozalik va insoniy e'tiqodga asoslangan
badiiy yo'nalishini yanada
mustahkamladi. Muhammad Yusuf
she'rlarining bugungi o'quvchi qalbida
hanuz aks-sado berib turishi ham aynan
shu samimiyat va halollik bilan
bog'liqdir.

MUHOKAMA

Muhammad Yusuf ijodi o'zbek
adabiyotida xalq so'zining badiiy-estetik
darajada yangicha talqin etilgan
namunalaridandir. Shoir she'riyatini tahlil
qilish shuni ko'rsatadiki, u xalqning hayot
tarzi, dunyoqarashi va his-tuyg'ularini
bevosita so'zda ifodalashga intilgan. Bu
jarayonda shoir xalqona ifodaning
soddaligini emas, balki uning ruhiy
chuqurligini asosiy estetik mezon sifatida
ilgari surgan.

Muhammad Yusuf so'zning tashqi
shakliga emas, balki ichki ma'nosiga,
yurakdagi haroratiga e'tibor qaratgan. U
she'rni fikr ifodasi emas, ruhiy
kechinmaning badiiy shakli deb bilgan.
Shu sababli uning ijodida badiiy
samimiyat adabiy estetikaga teng kuch
sifatida namoyon bo'ladi.

Shoirning badiiy qarashlarida "so'z"
va "vijdon" tushunchalari o'zaro uzviy
bog'langan. Uning fikricha, agar so'z
inson qalbiga yetmasa, u ma'nosiz
tovushga aylanadi; agar she'r yurakdan
chiqmasa, u san'at asari bo'la olmaydi.
Mazkur pozitsiya Muhammad Yusuf
she'riyatining falsafiy negizini tashkil
etadi.



Shoirning Vatan, muhabbat, inson va poklik haqidagi qarashlari ham ana shu ruhiy tizim doirasida shakllanadi. U Vatanni baland shiorlarda emas, balki insoniy holatlarda - onaning duosida, bolaning nigohida, tabiatning tiniqligida ko'radi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, Muhammad Yusuf uchun Vatan tushunchasi geografik yoki siyosiy birlikdan ko'ra ma'naviy poklik timsoli sifatida muhim ahamiyatga ega.

Muhabbat mavzusi shoir ijodida insonni yuksaltiruvchi, qalbni poklovchi tuyg'u sifatida talqin etiladi. "Go'zal iztirob" timsoli orqali u muhabbatning ruhiy, ma'naviy mohiyatini ochadi. Demak, Muhammad Yusuf uchun muhabbat - shaxsiy kechinma emas, balki insonni hayotga qaytaruvchi, ma'naviy uyg'otuvchi kuchdir.

Shu tarzda Muhammad Yusuf she'riyati o'zbek adabiyotida so'z, tuyg'u va e'tiqodning bir butun tizim sifatida ifodalanishiga sabab bo'ldi. Uning she'rlarida xalqona ohang orqali milliylik, soddalik orqali falsafiylik, dard orqali go'zallik yaratilgan.

XULOSA

Muhammad Yusuf o'z ijodi bilan o'zbek she'riyatida so'zning ma'naviy qadrini, shoirlikning axloqiy mezonini qayta tikladi. Uning poetik qarashlari xalqning ruhiga yaqin, ammo estetik jihatdan mukammal darajada ifodalangan. Shoir uchun she'r - bu qalbiy

tuyg'ularning so'zdagi ifodasi, adabiyot esa insonni poklaydigan, vijdonni uyg'otadigan kuchdir.

Shundan kelib chiqadiki, Muhammad Yusuf ijodi o'zbek adabiy tafakkurida samimiyat, milliylik va badiiy halollikni birlashtirgan betakror bosqichdir. Uning she'rlari nafaqat o'tgan davr ruhi, balki bugungi avlod uchun ham so'zning haqiqiy qiymatini anglash sabog'i bo'lib qoladi. Muhammad Yusuf ijodi - xalqning yuragidan chiqqan, xalqning o'z tili bilan aytilgan she'riyatidir. Uning she'rlarida Vatan va muhabbat bir-biridan ajralmas ikki nur. Vatan - onadek aziz, muhabbat esa, yurakka otash soluvchi go'zal dard singari mazmuni angalshimiz mumkin. Shuningdek, Muhammad Yusuf she'riyatida Vatan va muhabbat mavzulari nafaqat alohida, balki o'zaro chambarchas bog'langan holda ifodalanadi va inson qalbi hamda ma'naviyatini uyg'unlashtiruvchi asosiy element sifatida xizmat qiladi. Vatan tuyg'usi uning she'rlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, fidoyilik va milliy qadriyatlarni aks ettirsa, muhabbat mavzusi insoniy his-tuyg'ular, mehr-shafqat, sadoqat va ruhiy uyg'unlikni yoritadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bu mavzular she'riyatdagi metafora, ramz, obraz va badiiy vositalar orqali o'quvchiga chuqur hissiy va estetik ta'sir ko'rsatadi.



ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Ahmedov D. O‘zbek she‘riyatida obraz va ramzning roli. – T.: “Sharq”, 2011. – B.164.
2. Karimov O. Badiiy ifoda va metafora: o‘zbek she‘riyatida. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – B.176.
3. Mirzaev R. Vatanparvarlik va insoniy qadriyatlar: zamonaviy o‘zbek she‘riyati. – T.: “Adabiyot”, 2016. – B.140.
4. Musaev Sh. O‘zbek she‘riyati tarixi va rivoji. – T.: “Akademiya”, 2014. – B.223.
5. Normurodov F. She‘riyat va estetik tarbiya: Muhammad Yusuf misolida. – T.: “Ilm-fan”, 2018. – B.152.
6. Qodirov A. Muhammad Yusuf she‘riyatida milliy g‘urur va Vatan tuyg‘usi. – T.: “Shark”, 2010. – B.112.
7. Tadjiboev N. O‘zbek adabiy nazariyasi: Muhammad Yusuf ijodining semantik va stilistik tahlili. – T.: “Fan”, 2012. – B.198.
8. Yoqubov B. Muhammad Yusuf ijodida muhabbat mavzusi: falsafiy va badiiy tahlil. – T.: “Ilm”, 2015. – B.145.